

DAVLATNING BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI VA UNING NAZARIY
ASOSLARI

Baxtiyarova Nozima

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada fiskal siyosatning nazariy asoslari, fiskal siyost instrumentlari, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda fiskal siyosatining rolini oshirish hamda fiskal siyosatning nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: fiskal siyosat, fiskal siyosat instrumentlari, davlat, byudjet, soliq mexanizmi, soliq siyosati.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы фискальной политики, инструменты фискальной политики, роль фискальной политики в обеспечение экономического роста, а также разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию теоретических основ фискальной политики.

Ключевые слова: фискальная политика, инструменты фискальной политики, бюджет, налоговый механизм, государство, налоговая политика.

Abstract:

The article discusses the theoretical foundations of fiscal policy, the instruments of fiscal policy, the role of fiscal policy in ensuring economic growth, and also developed proposals and recommendations for improving the theoretical foundations of fiscal policy.

Key words: fiscal policy, fiscal policy instruments, budget, tax mechanism, state, tax policy.



Dunyoning globallashuv sharoitida jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, xususan global inqiroz, turli mamlakatlar o‘rtasida sodir bo‘layotgan harbiy xarakatlar sharoitida, davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, davlat byudjeti daromadlarini shaffofligini va samaradorligini oshirish, shuningdek iqtisodiyotni tartibga solishda fiskal siyosatning rolini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O‘rganishar ko‘rsatmoqdaki, “fiskal siyosat” tushunchasining iqtisodiy mohiyati va nazariy asoslariga oid ilmiy ishlarda iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan bo‘lib, yagona bir ta’rifga kelinmagan.

Iqtisodchi T.A. Agapova tomonidan berilgan ta’rifda, fiskal siyosat- bu mamlakat aholisining turmush darajasini yaxshilash uchun qo‘llaniladigan davlat choralar, shuningdek, butun davlat va alohida mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar1.

Fiskal (byudjet-soliq) siyosat (ingliz. < fiscal policy <lot. fiscus - savat; kassa, g‘azna, moliya) davlat siyosati xarajatlar yoki davlat byudjeti daromadlari miqdorini o‘zgartirib iqtisodiyotga ta’sir qilish chora-tadbirlarini ifodalaydi. Qisqa muddatda iqtisodiy sikllardagi tebranishlarni kamaytirish va barqaror iqtisodiy tizimni ta’minlash uchun davlatning iqtisodiyotga aralashuvining asosiy usullaridan biri2.

Iqtisodchi Ye.G. Yefimova – “Davlatning fiskal (byudjet-soliq) siyosati - bu iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish maqsadida soliqlar va davlat xarajatlarini manyovr qilishdir. Fiskal siyosat mexanizmi soliq imtiyozlari va davlat xarajatlari hajmining o‘zgarishi yalpi talabga va natijada YAIM, bandlik va narxlarning qiymatiga ta’sir qilishiga asoslanadi” deb ta’kidlagan3.

¹Agapova T.A. Makroekonomika. Uchebnik. pod red. S.F. Seryoginoy. - M.: Moskovskiy finansovo-promyshlennyiy universitet “Sinergiya”, 2013. — 560 c.

² Matveeva T. Yu. Seli i instrumenty fiskalnoy politiki // Vvedeniye v makroekonomiku. — “Izdatelskiy dom GU-VSHE”, 2007. — S. 446 - 447. — 511 s

³ Yefimova, Ye.G. Ekonomika - 4-ye izd., ster.-Moskva: Izdatelstvo “Flinta”, 2018. - 392 s.

Iqtisodchi M.A.Ibraxim, “Davlatning fiskal siyosati davlatning umumiy siyosatining eng muhim qismidir. Aynan, bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotning rivojlanish yo‘nalishi va sur’atlarini belgilab beruvchi fiskal siyosatdir. Agar davlat iqtisodiyoti to‘xtab qolayotgan bo‘lsa, unda birinchi navbatda soliq tizimini davlat fiskal siyosatining asosi sifatida tahlil qilish kerak” deb ta’kidlagan⁴.

Yuridik ensiklopediyada fiskal siyosat – davlatning aholi bandligini ta’minalash va mamlakatning iqtisodiy muammolarini hal qilishga qaratilgan soliq, davlat xarajatlari va davlat byudjeti sohasidagi faoliyati. Fiskal siyosat moliya siyosatining bir qismi va davlat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismidir” deb yozilgan⁵.

Iqtisodiy terminlar lug‘atida esa, fiskal siyosat - bu aholining bandligini ta’minalash va inflyatsiya jarayonlarining oldini olish va bostirishga qaratilgan soliqqa tortish, davlat xarajatlari va davlat byudjeti sohasidagi hukumat siyosati. Bu moliyaviy siyosatning asosiy qismi va davlatning iqtisodiy siyosatining ajralmas qismidir⁶.

Zyulyayev N.A⁷ - Fiskal siyosat muayyan iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun davlat xarajatlari va soliqlarni manipulyatsiya qilishni o‘z ichiga oladi.

Mahalliy olimlardan M.T.Asqarova, “fiskal siyosat - bu iqtisodiyotga ta’sir qilish uchun davlat xarajatlari va soliqlardan foydalanish. Davlatlar odatda kuchli va barqaror o‘sishni rag‘batlantirish va qashshoqlikni kamaytirish uchun fiskal siyosatdan foydalanadilar. Fiskal siyosatning roli va maqsadlari iqtisodiy turg‘unlik holatida hukumatlar tomonidan moliyaviy tizimlarni qo’llab-quvvatlash, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va turg‘unlikni zaif guruhlarga ta’sirini yumshatishda asosiy instrument sifatida foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotni barqarorlashtirish xisoblanadi. Bunday barqarorlashtirishga monetar siyosat vositalari qatori fiskal siyosat orkali ham

⁴ Ibraxim M.A., 2016. Aspekty fiskalnoy politiki gosudarstva / Nauchnyy журнал “Vestnik universiteta”. 2016. - №7-8.
- URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/aspekty-fiskalnoy-politiki-gosudarstva>

⁵ Yuridicheskaya ensiklopediya. 2015. <https://yuridicheskayaencyclopedia.academic.ru>

⁶ Sovremennyy ekonomicheskiy slovar / pod red. B.A. Rayzberg, L.Sh. Lozovskiy, Ye.B. Starodubseva. – M.: INFRA-M, 2006. – 125 s.

erishiladi. Fiskal siyosat shuningdek, byudjet-soliq siyosati deb xam aytildi. Byudjet-soliq siyosati deganda noinflyatsion YAIM ishlab chikarish sharoitida iktisodiyotda to‘liq bandlilikni, to‘lov balansining muvozanatini va iktisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarini o‘zgartirishni o‘z ichiga olgan chora tadbirlar tushuniladi⁷.

Yuqoridagilardan adabiyotlar sharhidan kelib chiqib, fikrimizcha “fiskal siyosat” tushunchasiga quyidagi ta’rifni kiritishimiz maqsadga muvofiq. Fiskal siyosat-davlat faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, davlat daromadlari va xarajatlarini muayyan iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar uchun tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini o‘z ichiga oluvchi moliyaviy siyosatning ajralmas qismi. Fiskal siyosat – inflyatsiya va ishsizlikni olidin olishda davlat xarajatlari va soliqlardan foydalanish orqali milliy iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish mexanizmidir.

Davlatlar iqtisodiyotga ta’sir o‘tkazishga intilganda ikkita asosiy dastak pul-kredit siyosati va fiskal siyosatdan foydalanadi¹³. Fiskal siyosatning asosiy dastaklariga soliqlar, transferlar, tovarlar va xizmatlarni davlat xaridi hisoblanadi⁸.

Davlatning fiskal siyosatida to‘lanadigan soliqlar miqdori katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ishlab chiqarish korxonalari to‘laydigan soliqlar tarkibini qarab chiqamiz. Korxonalar uchun soliqlari qanday manbalardan to‘lashni bilish lozimligi ta’kidlangan⁹.

Darhaqiqat korxonalar moliyaviy faoliyatiga bevosita soliqlar t’sir ko‘rsatib, soliq yuki darjasи bilan belgilanadi. Soliqlar to‘lanadigan manbalarga ko‘ra, quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

⁷ Axmedov D. K., Ishmuxamedov A.E., Jumayev K.X. Makroiqtisodiyot. Darslik - T.: TDIU, 2004, 240 bet

⁸ David N. Weil. “Fiscal Policy” (angl.) // The Concise Encyclopedia of Economics

⁹ Matveeva T. Yu. 4.1 Seli i instrumentы fiskalnoy politiki // Makroekonomika. — Izd. dom Vysšey shkoly ekonomiki, 2019. — S.439 s.

1) xarajatlari mahsulot tannarxiga kiritiladigan soliqlar: yer solig'i, avtomobil yo'llardan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliq, avtotransport fositalarini olib kirganlik va olib chiqganlik uchun yig'im.

2) xarajatlari mahsulotlarni sotishdan tushadigan tushumlar tarkibiga kiritiladigan soliqlarga - QQS, aksiz solig'i, aylanmadan olinadigan soliq va bojxona to'lovlar.

3) xarajatlari moliyaviy natijalarga qo'shiladagan soliqlar: foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, ijtimoiy soliq, mol-mulk solig'i.

4) xarajatlari korxona ixtiyorida qoladigan foydadan qoplanadigan soliqlar: ayrim tovarlarni sotish huquqi uchun litsenziyalar yig'imi, birja amalga oshirgan ishlar uchun yig'imlar.

Ma'lumki, soliqlar davlatning moliyaviy resurslari va yillik byudjetini shakllantirishning asosiy manbasi hisoblanadi. Byudjetning asosiy qismini esa soliqlar tashkil etadi. Davlatning asosiy funksiyalari (ta'lim, tibbiyat, mudofaa, jamoat tartibini ta'minlash, davlat apparatini ta'minlash va x.k.) yig'ilgan soliqlar hisobiga bajariladi.

Yangi Konstitutsianing 63-moddasiga muvofiq, "Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lashi shart. Soliq va yig'imlar adolatli bo'lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmasligi kerak"ligi belgilandi. Shu bilan birga, davlat ham fuqarolar uchun ortiqcha va og'ir bo'lgan soliqlar yoki boshqa yig'imlarni joriy etmaslik bo'yicha kafolat berishi, bu kafolat esa qonun bilan mustahkamlanishi muhim axamiyat kasb etadi. Davlat Konstitutsiyada inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklarini kafolatlamoqda.

Demak, davlat soliqlarni joriy qilish va undirishda soliq solishning adolatlilik, majburiylik, aniqlik va soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi, soliq tizimining yagonaligi, oshkoraliq va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanishi lozim. Soliq kodeksi va soliq to'g'risidagi qonun hujjalaring qoidalari Konstitutsiyaga zid bo'lishi mumkin emas.

Ta'kidlash joizki, byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida oxirgi yillarda tadbirkorlar to'laydigan soliq turlari soni qisqartirildi, aholiga, biznesga soliq imtiyozlari qo'llanildi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi tushurilib 12 foiz miqdorida belgilanib, QQS stavkasi 20 foizdan 12 foizga pasaytirildi. Xususan, 2020-yildan joriy qilingan yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga muvofiq, 13 ta turdagи soliqlar turlari 4 taga qisqartirilib 9 taga kamaytirildi.

Soliqlar xar qanday davlat shakllanishining asosiy moliyaviy manbasi hisoblanadi. Soliqlar – bu davlat va soliq to'lovchilar o'rtaсидаги moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim vositasi hisoblanadi. Soliq mexanizmi soliq xuquqi va soliqqa tortishni boshqarish asoslariga tayangan holda soliq munosabatlarini tartibga soladi.

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash sharoitida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish, davlat byudjeti daromadlaridan samarali foydalanish, xususiy tadbirkorlik rivojlantirish, soliq yukini kamaytirish va soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish, 2026-yil borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish17" kabi muxim ustuvor vazifalar belgilangan.

Bundan tashqari, strategiyada fiskal siyosatning quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan: -byudjet siyosatinining ijtimoiy yo'naltirilganligini, jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy himoyani rivojlantirishni ta'minlash; yillik byudjetni shakllantirishda "Natijaga yo'naltirilgan byudjet" tizimini bosqichma-bosqich to'laqonli joriy etish; fiskal siyosatning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash, bunda birinchi navbatda davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatan 60 foizlik makroiqtisodiy xavfsiz darajadan oshib ketmasligi va byudjet taqchilligining 3 foizlik cheklowlari bo'yicha kiritilgan fiskal qoidalarga qatiy amal qilish va x.k.

O‘rganishlar va tatqiqot natijasida mamlakatimizda fiskal siyosatni nazariy va amaliy jixatdan takomillashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

-byudjet ochiqligini yanada oshirish, byudjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik nazoratini kuchaytirishni ta’minlash maqsadida aholining byudjet mablag‘larini taqsimlash jarayonidagi faol ishtirokini yanada kengaytirish;

-byudjet daromadlari va xarajatlari samaradorligini va natijadorligini ta’minlash, shuningdek byudjet taqchilligi farqini qiskartirish.

-xorijiy mamlakatlar tajribasiga ko‘ra “Yashil byudjet” tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy qilish;

-“fiskal siyosat” tushunchasiga oid yagona ta’rifni ishlab chiqish hamda O‘zbekiston Respublikasining soliq va byudjet kodeksiga kiritish.

Hulosa qilganda, Yangi taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, byudjet daromadlari va harajatlarini samaradorligini ta’minlash, byudjet taqchillagini kamaytirish, soliq yukini kamaytirish va soliq ma’muriyatichilagini shafoffligini oshirish va qo‘sishimcha soliq bazasini kengaytirish orqali soliq tushumlarini oshirish mamlakat fiskal va byudjet-soliq siyosatining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr -T.: “Adolat”, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz” – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488b.

5. David N. Weil. “Fiscal Policy” (angl.) // The Concise Encyclopedia of Economics
6. Agapova T.A. Makroekonomika. Uchebnik. pod red. S.F. Seryoginoy. - M.: Moskovskiy finansovo-promyshlenny universitet “Sinergiya”, 2013. — 560 c.
7. Asqarova M.T. Fiskal siyosat. O‘quv qo‘llanma -T .: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” 2022, 270 bet
8. Axmedov D. K., Ishmuxamedov A.E., Jumayev K.X. Makroiqtisodiyot. Darslik - T.: TDIU, 2004, 240 bet
9. Yefimova, Ye.G. Ekonomika - 4-ye izd., ster.-Moskva: Izdatelstvo “Flinta”, 2018. - 392 s.
10. Zyulyayev N.A. Makroekonomika: prodvinutyy uroven . / N.A. Zyulyayev; Povoljskiy gosudarstvenny texnologicheskiy universitet.- Yoshkar-Ola: PGTU, 2015. - 168 s.
11. Ibraxim M.A., 2016. Aspekty fiskalnoy politiki gosudarstva / Nauchnyy jurnal “Vestnik universiteta”. 2016. - №7-8. - URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/aspekty-fiskalnoy-politiki-gosudarstva>
12. Matveeva T. Yu. 4.1 Seli i instrumenty fiskalnoy politiki // Makroekonomika. — Izd. dom Vysisshey shkoly ekonomiki, 2019. — S.439 s.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr -T.: “Adolat”, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

4. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz" – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488b.
5. David N. Weil. "Fiscal Policy" (angl.) // The Concise Encyclopedia of Economics
6. Agapova T.A. Makroekonomika. Uchebnik. pod red. S.F. Seryoginoy. - M.: Moskovskiy finansovo-promyshlennyy universitet "Sinergiya", 2013. — 560 c.
7. Asqarova M.T. Fiskal siyosat. O'quv qo'llanma -T .: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" 2022, 270 bet
8. Axmedov D. K., Ishmuxamedov A.E., Jumayev K.X. Makroiqtisodiyot. Darslik - T.: TDIU, 2004, 240 bet
9. Yefimova, Ye.G. Ekonomika - 4-ye izd., ster.-Moskva: Izdatelstvo "Flinta", 2018. - 392 s.
10. Zyulyayev N.A. Makroekonomika: prodvinutyy uroven . / N.A. Zyulyayev; Povoljskiy gosudarstvennyy texnologicheskiy universitet.- Yoshkar-Ola: PGTU, 2015. - 168 s.
11. Ibraxim M.A., 2016. Aspekty fiskalnoy politiki gosudarstva / Nauchnyy журнал "Vestnik universiteta". 2016. - №7-8. - URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/aspekty-fiskalnoy-politiki-gosudarstva>
12. Matveeva T. Yu. 4.1 Seli i instrumenty fiskalnoy politiki // Makroekonomika. — Izd. dom Vysšey shkoly ekonomiki, 2019. — S.439 s.
13. Mayburov I.A. i dr.. Teoriya i istoriya nalogoooblojeniya. 2-ye izd., pererab. i dop. - M.: — 422 s.. 2011
14. Matveeva T.Yu. Seli i instrumenty fiskalnoy politiki // Vvedeniye v makroekonomiku. — "Izdatelskiy dom GU-VSHE", 2007. - S. 511 s
15. Maxmudov N.M, Shakarov A.B. Makroiqtisodiyot. Darslik - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" 2022, 454 bet.

16. Sovremennyy ekonomicheskiy slovar / pod red. B.A. Rayzberg, L.Sh. Lozovskiy, Ye.B. Starodubseva. – M.: INFRA-M, 2006. – 125 s.
17. Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya” 2010, 728 b.
18. Shodmonov Sh.Sh., Raxmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.– T.: Zamin nashr, 2021. – 856 b.
19. Juridicheskaya ensiklopediya. 2015.
<https://juridicheskayaencyclopedia.academic.ru>